



## O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY MAKTABGACHA TA'LIMNING VUJUDGA KELISHI VA TARIXI

**Z. Botirova**

FarDu katta o'qituvchisi

**M. Ashuraliyeva**

FarDu talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7810019>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 01-april 2023 yil

Nashr qilindi: 08-april 2023 yil

### KEY WORDS

*bola, tarbiya, maktabgacha ta'lim, nizom, tizim, ko'nikma, mustaqillik, bilim, malaka, qadriyat, kadam, konsepsiya.*

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va tarixi yoritib berilgan. O'sha davrda maktabgacha ta'lim bo'yicha chiqarilgan farmon va nizomlarga batafsil ta'rif berilgan.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida davlat va jamiyat hayotini, jumladan, ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqbolning dastlabki yillaridayoq Prezidentimiz kadrlar tayyorlashning zamonaviy yagona tizimini yaratish g'oyasini ilgari surib: «Ta'lim berishning, ma'naviy, axloqiy va kasb malakasi bo'yicha tarbiyalashning mutlaq yangi tizimi ishlab chiqilishi zarur. Sifat jihatidan butunlay yangi o'quv dasturlari yaratilishi darkor», deya ta'kidlagan edi.

Davlatimizning birinchi rahbarining ushbu fikrlari keyinchalik ta'lim-tarbiya sohasiga oid ko'plab qarorlarning, tegishli me'yoriy hujjatlarning, eng muhimi, butun dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishiga metodologik asos sifatida xizmat qildi. Ushbu dasturda maktabgacha va maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar hamda oliy ta'limni uch bosqichda isloh qilishi, besh bosqichli ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutilgan edi. Bu boradagi milliy dastur konsepsiyasi birinchi Prezidentimiz tomonidan 1997 yil Oliy Majlisning IX sessiyasida «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli ma'ruzasida asoslab berildi. Unga binoan, mamlakatimizda noyob, dunyoda o'xshashi yo'q, uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi — bola shaxsining har jihatdan rivojlanishini ta'minlash, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'qishga, doimiy ta'lim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish va maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun tayyorlashdan iborat. Maktabgacha tarbiya muassasalari bolalarning bilimi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularni vatanparvarlik mustaqillik g'oyalariga sadoqat, tariximiz va boy ma'naviy-ma'rifiy merosimiz va qadriyatlarimizga yuksak hurmat ruxida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining qonuniy asoslari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (1992 y.), Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997 y.), «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiya (2008, 2011),

«Maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risida»gi Nizom (2007), «Bolajon» dasturi (2010,2016) va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan. Masalan, 2008 yilda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiyada maktabgacha ta'lim muassasalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari, ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish usul va uslublari belgilab berilgan bo'lib, bu borada ilgari surilgan davlat talablari har bir bolaning yoshini e'tiborga olgan holda rivojlanish darajasini aniqlash, pedagog va tarbiyachilar ish samaradorligini oshirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2010 yil 18 iyunda qabul qilingan «Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan mazkur muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, zarur mutaxassislar, jumladan, psixologlar, defektologlar va tibbiy xodim-hamshiralalar bilan to'liq ta'minlandi. Ushbu muassasalarda imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish va ularni maktabda o'qitish uchun barcha ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'ligini muhofaza etish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, Xalq ta'limi va Sog'liqni saqlash vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan «Maktabgacha ta'lim muassasalarida bola hayoti va sog'ligini muhofaza etish tartibi to'g'risida»gi Nizomda bolalar hayoti va sog'ligini muhofaza etishni tashkil qilish tartibi, bolalarning muassasaga kelib-ketish qoidalari, binoda sog'liqni muhofaza etishga, yong'in xavfsizligiga doir talablar bayon etilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. "Mehnat va uni oqitish metodikasi. Oquv qollanma. T., TDPU. 2007-yil.
- 2.Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlangich sinflarda qo'g'ozdan amaliy ishlar. Oquv-metodik qollanma. T., "Navroz. 2013-yil.
- 3.Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat talimi 2-sinf darsligi. T., Nafis bezak 2012-yil.
- 4.Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat talimi 3-sinf darsligi. T., Nafis bezak. 2012-yil.
- 5.Sayidaxmedov N. Pedagogik mahorat va texnologiya. T.: 2003.
- 6.Ganiyeva Oyinlar orqali yuzaga chiquvchi imkoniyatlar/ Bosh. talim.2009.10-son.
- 7.Ilyosova D. Manaviyati yuksak avlod vatan ishonchi./Boshlangich talim.2010.3-son
- 8.Azizhojayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: 2003.
- 9.Erkaboeva N. Amaliy pedagogika. Fan va texnologiyalar. T.: 2005.
10. Sobirjonovich S. I. malaka oshirish tizimida o'qituvchining axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini rivojlantirish // IJTIMOY FANLARDA innovatsion ONLAYN ILMIY jurnal. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 30-38.
11. Ergasheva D. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA TO 'G 'RI O 'QISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1675-1678.
12. Turg'unboyev B., Ergasheva D. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH-BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARI O 'QUV-BILUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – T. 3. – №. 1 Part 1. – C. 162-164.
13. Soliyev I., Ergasheva D. OUR FAVORITE WAYS TO TEACH FAIRY TALES //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 338-342.